

## INVESTITSIYA LOYIHALARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

**Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich**

Namangan davlat texnika universiteti,  
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

### Annotatsiya

Ushbu maqolada investitsiya loyihalarini davlat tomonidan tartibga solishning ustuvor yo‘nalishlari investitsiyalar ko‘lamini yanada oshirish orqali mamlakatda aholi turmush darajasini yaxshilash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini oshirish, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish, iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** ishlab chiqarish, innovatsion g‘oyalar, korxonalar, boshqaruv, investitsiya, iqtisodiy kategoriya, ishlab chiqarish jarayoni.

### Аннотация

В статье изложены идеи и соображения по приоритетным направлениям государственного регулирования инвестиционных проектов, в том числе по повышению уровня жизни населения страны за счет дальнейшего увеличения масштабов инвестиций, создания новых рабочих мест, повышения темпов экономического роста, широкого внедрения инновационных идей и технологий, формирования конкурентной среды в экономике.

**Ключевые слова:** производство, инновационные идеи, предприятия, управление, инвестиции, экономическая категория, производственный процесс.

### Abstract

This article presents ideas and considerations on the priority areas of state regulation of investment projects, namely, improving the living standards of the population in the country by further increasing the scale of investments, creating new jobs, increasing economic growth rates, widely implementing innovative ideas and technologies, and creating a competitive environment in the economy.

**Keywords:** production, innovative ideas, enterprises, management, investment, economic category, production process.

### KIRISH

Jahonda investitsiya loyihalarini boshqarishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishda kiritilayotgan investitsiyalarning iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha mutanosibligini ta‘minlash, ishlab chiqarish va maishiy iste‘mol jarayonida energiya tejamkorligiga erishish, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan uy-joy ta‘minoti darajasini oshirish yo‘nalishidagi tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Binobarin, investitsiyalar ko‘lamini yanada oshirish orqali mamlakatda aholi turmush darajasini yaxshilash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini oshirish, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish, iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish imkoniyatlari yuzaga keladi. Bugungi kunda

iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida korxonalarni tashkil etish va boshqarish sohasidagi malakali kadrlar yetishmasligi muammosini bartaraf etish, byurokratik to'siqlarga barham berish, qo'shma korxonalar tashkil etish va rivojlantirish kelgusida iqtisodiyotimizni ravnaq topishiga hamda aholi turmush farovonligini oshirishiga xizmat qiladi.

Innovatsion iqtisodiyotga o'tish iqtisodiy yo'nalishdagi mutaxassislariga, ularni tayyorlash va ulardan amaliyotda foydalanishga bo'lgan talablarning o'zgarishiga olib keladi. Iqtisodiyotni boshqarishning barcha miqyoslarida yangicha iqtisodiy fikrlash mafkurasini shakllantiradi.

Innovatsion iqtisodiyot boshqaruv hisobi bo'yicha an'anaviy qarashlarning o'zgarishiga olib keldi va uning alohida yo'nalishlarini rivojlantirishni talab qiladi. Bu innovatsiyalarni samarali boshqarish uchun zarur ma'lumotlarni shakllantirish va innovatsion mahsulotlar sohasidagi mijozlarning istaklarini tahlil qilish, shuningdek, investitsion loyihalarni amalga oshirishni to'g'ri monitoring qilish kabi vazifalarning mavjudligi bilan bog'liq.

Investitsiya har qanday jadal rivojlanayotgan tashkilot faoliyatining muhim jihatlaridan biri bo'lib, uni boshqarish qisqa muddatli istiqbolga emas, balki uzoq muddatli foydaga ustuvorlik beradi. Shu bilan birga, bunday investitsiya siyosatini yuritayotgan korxonalarning muvaffaqiyatli faoliyati investitsiya loyihalarini tahlil qilish va tanlash jarayoni qanday tashkil qilinganligiga bog'liq.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Investitsiya loyihalarini boshqarish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar D.R.Davis, D.E.Weinstein, Y.Huang, C.G. Juarez Rivera, G.A.Castro, Fu. Xiaolan E.M.Hoover, R.Harris, F.Giarratani, K.C.Head, T.Mayer, R.Capello, U.Fratesi, W.Cochrane tomonidan o'rganilgan.[1-8]

MDH olimlari Yu.N.Gadjiyev, O.S.Karavayev, A.G.Bogatyev, V.A.Svechnikov, T.K.Rutkauskas, B.I.Jukenov, D.S.Karavayevlar tomonidan investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonlarini tartibga solish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.[9-15]

O'zbekistondagi iqtisodchi olimlardan T.M.Axmedov[16], O.O. Olimjonov[17], A.M.Qodirov[18] S.S.Zokirov, N.G.Karimov, A.V.Mamatqulov, Sh.I.Mustafakulov, A.B.Nizamov, N.A.Xashimova[19-23], M.M. Karimov[24] va boshqalar tomonidan hududlarda investitsiya resurslarini samarali taqsimlash va boshqarish masalalari tadqiq etilgan.

### **METODOLOGIYA**

Tadqiqot ishida tizimli tahlil, statistik-iqtisodiy va taqqoslama, tarkibiy tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, prognozlash hamda qator boshqa usullardan foydalanildi.


### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Mazkur tadqiqotlarda investitsiya jarayonlarining mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishga ta'siri bo'yicha ma'lum nazariy va metodologik natijalar olingan bo'lishiga qaramasdan, innovatsion iqtisodiyot sharoitida investitsiya loyihalarini boshqarish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Bugungi voqelik nuqtai nazaridan,

investitsiya siyosati va investitsiya faoliyatini o‘zaro bog‘lagan holda investitsiya loyihalarini boshqarish zaruriyati dissertatsiya mavzusini tanlashga asos bo‘ldi.

Ma’lumki, investitsiyalar iqtisodiy kategoriyasi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini o‘z ichiga oladi va ijtimoiy mahsulotning bir qismidan jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari tizimi elementlarini miqdor jihatidan orttirish maqsadida foydalanishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya jarayoni qator prinsiplarga asoslanadi: innovatsionlik– investitsiya jarayoni korxonalar yoki boshqa korxonalar iqtisodiyotining sifatli o‘shirishini ta’minlashi hamda bozorda unga talab bo‘lishi, shuningdek, iqtisodiy tizimda to‘planib borayotgan o‘zgarishlarni hisobga olishi lozim; yo‘nalganlik – investitsiya jarayoni O‘zbekiston iqtisodiyotining yaxlit o‘shirish va kapitaldan maksimal samara olish imkonini berishi lozim; egiluvchanlik – investitsiya jarayonining maksimal darajada samaradorligiga erishish va investitsiya taktikasini tartibga solish hamda korxonalar tashkiliy tuzilmasini egiluvchanligini nazarda tutishi lozim; uzluksizlik – investitsiya jarayoni davlatning investitsiyaga oid siyosati shakllanish jarayoni uzluksizligini va investitsiya resurslarini davlatning iqtisodiy o‘shirishini ta’minlash maqsadida o‘z ichiga oladi.



**1-rasm. Investitsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solishdagi asosiy omillari<sup>1</sup>**

Investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish muhim ahamiyat kasb etib, unda bevosita sohalar, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit va investitsion jarayonlarni borishida yuzaga kelgan hamda keladigan muammolarni aniqlanib, ushbu muammolarni yechishda iqtisodiyotni me’yorida ishlab turish va ijtimoiy boshqarishni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solishning asosiy omillari sifatida quyidagilarni

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

ajratib olish maqsadga muvofiq bo‘ladi (1-rasm).

1-rasmdan ko‘rinadiki, sanab o‘tilgan omillar butunlay boshqa-boshqa xarakter kasb etsa-da, ular milliy iqtisodiyotni investitsiyalash jarayonlarini tartibga solish majmuasini tashkil etib, umumiy ma‘noda iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan omillardir. Shu sababdan, muallif fikricha, yuqorida keltirilgan obyektlar bilan investitsiya jarayonlari o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha kengroq tushuncha berish maqsadga muvofiqdir.

Investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solishning asosiy obyektlaridan biri, iqtisodiy sikl bo‘lib, u barcha tomonlari bilan iqtisodiyotning hamma sohalariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Shuni ham alohida ta‘kidlash lozimki, investitsiya jarayonlarida iqtisodiy sikl harakatini doimiy ravishda nazorat qilib borish va tartibga solib turish lozim. Chunki, iqtisodiyot tarkibiy qismlarning o‘zaro bog‘liqligi sababli uning hech bir sohasi inflyatsiya to‘lqini yoki turg‘unlikning noxush oqibatlaridan chetda qolmaydi.

Investitsiyalarni tartibga solishning obyekt sifatida eng asosiysi investitsion muhit hisoblanib, unga ko‘ra, mamlakatda investorlar kafolatlangan yuqori foyda olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar xorijiy investorlar oqimining o‘shishiga olib keluvchi muhim shartlar nazarda tutiladi. Jumladan, tovar zaxiralarning tugashi, importning oshishi, to‘lov balansining yomonlashishi va boshqa salbiy oqibatlarining yuz berishi kuzatiladi. Bu holda makroiqtisodiy tartibga solishda talabni oshirishga, ishlab chiqarish va kapital kiritilishini sekinlashtirishga, imkoniyatga qarab qayta ishlab chiqarish hamda jamg‘armani qisqartirishga qaratilishi lozim. Investitsion faoliyatni tartibga solishning xorij tajribasini uchta xarakterli model alohida ahamiyat kasb etadi:

1. «Davlat-regulyator» modeli. Bu modelda bozor davlat tomonidan tartibga solib turiladi hamda ma‘muriy xarakterdagi tezkor chora-tadbirlar yordamida investitsion faoliyatga ta‘sir ko‘rsatishga asoslangan davlati siyosati orqali amalga oshiriladi (Xitoy).

2. «Davlat + transmilliy korporatsiyalar (TMK)» modeli. Bu modelda xalqaro mehnat taqsimotini hisobga olib, ixtisoslashishga e‘tiborni jamlagan holda milliy manfaatlar hamda transmilliy korporatsiyalar (TMK) faoliyatiga yo‘naltirilgan davlat siyosatini birlashtirish orqali amalga oshirish (Finlyandiya).

3. «Mikroiqtisodiyot + makroiqtisodiyot + davlat-koordinator» modeli. Bu modelda asosan mamlakatning turistik-rekreatsion resurslarini turli darajadagi iqtisodiyot agentlari manfaatlarini hisobga olgan holda investitsion siyosat asosida mamlakatni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosati orqali amalga oshiriladi (Chexiya).

Xitoy, Finlyandiya va Chexiyada investitsiya faoliyatini samarali boshqarishga oid fikrlar, mutlaqo o‘xshash emasligiga qaramasdan, bitta umumiylikka ega – bu davlat investitsiya siyosatining mavjudligi, mamlakat resurs salohiyatining kuchli tomonlaridan dunyo xo‘jalik aloqalari nuqtai nazaridan foydalanish, ichki va tashqi bozorning bir-biriga kirib borishidir (iqtisodiy chegaralarning “ochiqligi”). Aynan shu prinsiplar, umuman dunyo xo‘jaligi uchun ham, alohida mamlakatlar iqtisodiyoti uchun ham samarali va ular investitsiya faoliyatini samarali boshqarish asosini tashkil

etmog'i lozim. Shundan kelib chiqqan holda, qiymati kamida 10 million AQSH dollari ekvivalentida bo'lgan yirik investitsiya loyihasi uchun: ijara muddati davomida yer solig'i summasiga nisbatan qo'llaniladigan; Soliq kodeksiga muvofiq belgilanadigan stavkaga nisbatan oshiruvchi koeffitsiyent miqdori; jami mahsulotlar tarkibida eksport qilinadigan yuqori mahsulotlar ulushi; yuqori texnologiyali mahsulotlarning umumiy mahsulotlariga nisbatan ulushi; ish bilan ta'minlanadigan fuqarolarning o'rtacha yillik soniga nisbatan mezonlar asosida eng yaxshi taklifni tanlab olish va ushbu loyihani amalga oshirish uchun ijaraga yer uchastkasi berish maqsadga muvofiq.

Investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish hamda byudjet-soliq siyosati o'rtasida bog'lanish mavjud. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, byudjet xarajatlarini (davlat xarajatlari va transfert to'lovlari) ko'paytirilishi yoki qisqartirilishi orqali davlat mamlakat iqtisodiyotiga aralashadi. Bu o'z navbatida davlat bosh islohotchi tamoyili amalda ekanligidan dalolat beradi. Investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish va valyuta siyosati o'rtasidagi bog'lanish ikki munosabat o'rtasida ham zichroq bog'lanish mavjudligini ifodalaydi, bu o'z navbatida valyuta siyosatidagi barqarorlik kapital qo'shilmalarni ortishiga olib keladi.

Chunki, valyuta qiymatini barqarorligi hamda inflyatsiya darajasining muvozanat holati investorni investitsiya qilishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantiradi. Shuningdek, investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solishda valyuta kursi barqarorligini ushlab turish maqsadida soliq yoki pul siyosatidan chet el valyutasining yetishmasligini bartaraf qilish vositasi sifatida foydalaniladi.

Investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish bilan narxni shakllantirish siyosati o'rtasidagi bog'lanish o'rtachadan zichroq bog'lanishga ega bo'lib, o'z navbatida investitsiya kiritilishiga imkon yaratadi. Bunda, iqtisodiyotning bir maromda o'sib borishini yetarli darajada investitsiya bilan ta'minlash va muomaladagi pul massasiga bog'lab borish lozim. Shuningdek, investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish hamda talab va taklif siyosati o'rtasidagi bog'lanish boshqalarga nisbatan zichroq bo'lib, har qanday investor bozordagi talab va taklif munosabatlarini o'rganish shu asosida belgilangan loyihalarga investitsiya kiritishlarini anglatadi. Bu o'z navbatida tuzilayotgan loyihalarni har tomonlama o'ylab mukammal ravishda ishlab chiqib investorlarga taqdim etishni talab qiladi.

Tahlillar ko'rsatishicha, davlat investitsion ishlab chiqarishga juda uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi. YAIMning 1 foiz punktini tashkil etgan davlat investitsiya xarajatlarining kutilmagan ta'siridan to'rt yil o'tgach, real ishlab chiqarish darajasi 1,5 foizga yuqori bo'ladi, bu o'rta muddatli fiskal multiplikatorga taxminan 1,4 ga to'g'ri keladi. Ushbu natija, kelgusida davlat investitsiyalari jismoniy infratuzilma zaxirasini ko'paytirish orqali iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatining kengayishini aks ettiradi. Bu esa o'z navbatida, investitsiyalarni jalb qilish va undan samarali foydalanish bo'yicha xalqaro reytinglar hamda alohida indikatorlar bo'yicha mamlakat o'rnini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bu borada bizningcha, Davlat boshqaruv organlari tarkibida xalqaro reytinglar hamda alohida indikatorlar bo'yicha mamlakat o'rnini yaxshilashga mas'ul bo'lgan bo'lim va boshqarmalar tuzish maqsadga muvofiqdir.

Davlat investitsiyalarining ishlab chiqarish samarasining nuqtaviy baholari 2010-yildan keyingi davrda birmuncha kattaroq bo'lsa-da, ilg'or iqtisodiyoti namunamizda vaqt o'tishi bilan davlat investitsiyalari multiplikatorida statistik jihatdan muhim o'zgarishlar kuzatilmadi. Davlat investitsiyalarining ta'siri davlat investitsiyalari samaradorligi yuqori bo'lgan mamlakatlarda kattaroq mahsulot ta'siriga olib kelishi haqidagi xulosa turli choralar uchun ishonchlidir.

Oldingi empirik yondashuvlar davlat investitsiyalarining qisqa va o'rta muddatli makroiqtisodiy ta'sirini baholashga qaratilgan. Biroq, ular uzoq muddatli ta'sirni baholashda yetarlicha samarali emas. Ayniqsa, nominal va real foiz stavkalari juda past darajada bo'lgan hozirgi iqtisodiy muhit sharoitida, ushbu yondashuvlar rivojlangan mamlakatlar duch kelayotgan yangi iqtisodiy sharoitlarni to'liq aks ettira olmaydi.

Shuning uchun empirik tahlilni to'ldirish uchun davlat investitsion shoklarining makroiqtisodiy ta'sirini dinamik stoxastik umumiy dinamika yordamida muvozanat modelini ko'rib chiqadi. Tahlil Xalqaro valyuta fondining global integratsiyalashgan valyuta va fiskal modelidan foydalangan holda uni milliy iqtisodiyotga moslashtirib foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday tuzilmaviy modeldan foydalanishning asosiy afzalligi shundaki, davlat investitsiya ta'sirlari qat'iy ekzogendir va identifikatsiyalash bo'yicha taxminlarga ehtiyoj qolmaydi. Bundan tashqari, model fiskal shoklarning ta'sirini baholash uchun ayniqsa dolzarb bo'lgan ba'zi jozibali xususiyatlarni taqdim etadi. Birinchidan, u juda batafsil moliyaviy siyosat blokiga ega. Ikkinchidan, u fiskal shoklarning uzatilishini shakllantiradigan ba'zi empirik aloqador kanallarni jumladan, uy xo'jaliklarining muhim ulushi likvidlik cheklanganligini ham o'z ichiga oladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Jahon moliyaviy inqirozidan buyon eng yirik rivojlangan mamlakatlarda siyosat stavkalari nolga yaqin bo'ldi va hali ham katta ishlab chiqarish bo'shliqlari tufayli yaqin kelajakda bu darajada qolishi kutilmoqda[25]. Bunday sharoitda davlat investitsiya ta'siri ishlab chiqarishning makroiqtisodiy javobini, davlat qarzining YAIMga nisbatini va xususiy investitsiyalarning davlat investitsiyalarining YAIMning 1 foiziga o'sishiga pul-kredit siyosatida foiz stavkalarini (ikki yil davomida o'zgarishsiz qoladi degan taxmin bilan) simulyatsiya qilish orqali tekshirish lozim.

Foiz stavkalari ikki yil davomida nolga yaqin qoladi deb taxmin qilishning ikkita asosiy sababi bor. Birinchidan, bunday taxmin ko'pchilik yirik rivojlangan iqtisodiyotlar uchun foiz stavkalari bo'yicha bozor kutganlariga mos keladi. Ikkinchidan, modelda markaziy bank ishlab chiqarish va inflyatsiyani barqarorlashtirishning yagona yo'li nominal foiz stavkalarini kamaytirishdir. Foiz stavkalarini pasaytirish imkoniyati uzoqroq muddatga, masalan, uch yoki undan ortiq yilga olib tashlanganida, mazkur model beqaror makroiqtisodiy dinamikani keltirib chiqaradi, bu esa, simulyatsiya natijalarini hisoblashni qiyinlashtiradi.

Ushbu simulyatsiya natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat investitsiyalarining YAIMning 1 foizi doimiy o'sishi o'sha yili ishlab chiqarishni taxminan 2 foizga oshiradi. Pul-kredit siyosati normallashtirish sari investitsiya ta'siridan keyingi uchinchi

yilda mahsulot ishlab chiqarish pasayadi, keyin esa davlat kapitalining yuqori zaxiralari tufayli uzoq muddatda 2,5 foizgacha oshishi kuzatiladi.

Davlat investitsiyalarining ko'payishiga darhol pul-kredit siyosati munosabatida qisqa muddatli chiqish effektlari ancha kichikroq bo'ladi. Natijada, qarzning YAIMga nisbati oxir-oqibat o'sib boradi va YAIMning 1,5 foiz punkti darajasida barqarorlashadi. Ushbu simulyatsiyalar davlat investitsiyalarining to'liq samarali ekanligini, ya'ni investitsiya qilingan har bir so'm samarali davlat kapitaliga aylanishini bilvosita taxmin qiladi.

Biroq, investitsiya samaradorligi past bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarish samaradorligi ham pasayadi. Investitsion samaradorlik darajasi pastroq bo'lgan mamlakatlarda davlat investitsiyalarining YAIMning 1 foiz punktiga o'sishi uzoq muddatda ishlab chiqarish hajmini taxminan 2,2 foizga oshiradi, davlat investitsiyalari to'liq samarali bo'lgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 2,8 foizga yaqin o'sadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy etish barcha sohalardagi kabi investitsiya loyihalari tahlilida ham uslubiy o'zgarishlarga erishishni taqozo etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib qayd etish joizki, investitsion loyihalarni boshqarishni quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir:

- Loyiha siklining investitsiya oldi fazasida loyihalarni boshqarishni takomillashtirish.
- Loyiha siklining investitsiya fazasida loyihalarni boshqarishni takomillashtirish hamda loyiha siklining ekspluatatsiya fazasida loyihalarni boshqarishni takomillashtirish.
- Qo'shma korxonalarining afzalliklaridan biri shundaki, ular tashqi bozorga chiqish imkoniyatini yaratadi va boshqaruv bo'yicha ilg'or tajribasini to'g'ridan-to'g'ri o'rtoqlashishga qiziqqan chet ellik sherikning tajribasidan foydalanish imkonini beradi.

Samarali investitsion loyihalarni o'zlashtirish orqali rivojlangan bozor iqtisodiyotini barpo etish bilan bog'liq ko'pgina vazifalarni hal etishga muvaffaq bo'lamiz. Uning amalga oshirilishi birgina qo'shimcha faoliyat va ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishini ta'minlab qolmasdan, balki jamiyat hayotining haqiqiy darajasini ko'rsatib beruvchi aholi turmush farovonligining oshishiga va davlat boyligining ko'payishiga hamda uning iqtisodiy qudratini oshirishga xizmat qiladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Milliy iqtisodiyotimiz uchun investitsiyalarning ahamiyati bir qator omillarga bog'liq, ular orasida quyidagilar alohida ajralib turadi: yirik investitsiya loyihalarni qo'shimcha moliyalashtirish imkoniyati; eng yangi texnologiyalar va uskunalarga, innovatsion loyihalarga chet el sarmoyasini jalb qilish orqali ishlab chiqarishni tashkil qilishning ilg'or usullaridan foydalanish.

Xorijdan xarid qilingan texnologiyalarni olib kelishdagi transport-logistika xizmatlarining qimmatligi, raqobatbardosh emasligi, havo transportida yuk va yo'lovchi tashishda jahon bozorida yoqilg'i-energetika resurslari qiymatining tushib borayotgan hozirgi sharoitida transport-logistika xizmatlari kompaniyalarining

monopoliyasiga chek qo'yish hamda ular o'rtasida raqobatni yuzaga keltirish maqsadga muvofiqdir.

Investitsiya loyihalarini boshqarishni takomillashtirishda quyidagi xulosalarni alohida ko'rsatib o'tish mumkin:

- Investitsiya faoliyati tahlilini tashkil etishning xususiyatlarini aniqlash, ularni belgilangan xalqaro standartlar talablari darajasida takomillashtirish yo'llarini ko'rsatib berish.
- Investitsiya faoliyatini amalga oshirishda yetarli darajada axborot imkoniyatlarini kengaytirish. Bu jahon amaliyotida investitsiya faoliyati tahlilini tashkil etish, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash imkonini beradi.
- Raqamlashtirish orqali korxonalarining kelgusi istiqbolli davrga mo'ljallangan optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo'yicha tegishli tadbirlar ishlab chiqib, uni amalga oshirish imkoniyatlari kengaytirish.
- Investitsiya faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi investitsiya hajmi, investitsiya samaradorligi, investitsiyadan kutiladigan natija, korxonada ichki resurslarining investitsiyaga muhtojlik darajasi kabi ko'rsatkichlarning omilli tahlilini zamonaviy usullari orqali takomillashtirish evaziga samarali investitsiya loyihalarini joylashtirish va jalb qilish metodologiyasini yaratish zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hoover, Edgar M. and Giarratani, Frank, "An Introduction to Regional Economics" // Web Book of Regional Science. 4. 2020. P.303;
2. Carmen Guadalupe Juarez Rivera, Gerardo Angeles Castro Foreign direct investment in Mexico Determinants and its effect on income inequality// Contaduria y Administracion. 2013. Vol. 58. № 4. P. 201–222;
3. Huang, Y. (2003). 'One Country, Two Systems: Foreign-invested Enterprises and Domestic Firms in China'. China Economic Review, 14: 404-16;
4. Xiaolan Fu, Foreign Direct Investment, Absorptive Capacity and Regional Innovation Capabilities: Evidence from China, Abstract, Department of International Development University of Oxford October 2007;
5. Harris R. Models of Regional Growth: Past, Present and Future // Urban and Regional Economics Seminar Group Seminar Meeting: University of Glasgow, 10-11 January 2008;
6. Capello R., Fratesi U. Modelling Regional Growth: An Advanced MASST Model // Spatial Economic Analysis, Vol. 7, No. 3, September 2012. P. 293-318.
7. Cochrane W., Poot J. Demand-Driven Theories and Models of Regional Growth // Handbook of Regional Science. July 2013. P. 259-276;
8. Head K.C., Mayer T. Market potential and the location of Japanese investment in the European Union // Review of Economics and Statistics. 2004. Vol. 86. № 4. P. 959–972.
9. Гаджиев Ю. Зарубежные новые теории регионального экономического роста и развития// Часопис Економічних реформ №3(15), 2014 г. –С.105-113;

10. Карацук О.С. Совершенствование государственного регулирования инвестиционной деятельности в торговле с использованием налоговых методов // Российское предпринимательство. -2015. -Т. 16. -№ 11. -С. 1567-1578;
11. Богатырев А. Г. Актуальные проблемы правового регулирования инвестиционных отношений в Российской Федерации // Вопросы экономики и права. –2015. –№ 9. –С. 25-28;
12. В.А.Свечников. Актуальные вопросы правового регулирования инвестиционной деятельности в Российской Федерации.// Экономика. Право. Общество № 1 (17), 2019. –С. 82-87;
13. Инвестиции и инвестиционная деятельность организаций: учебное пособие / Т. К. Руткаускас [и др.]; под общ. ред. д-ра экон. наук, проф. Т. К. Руткаускас.-Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2019.-316 с.;
14. Жукенов Б.И. Зарубежный опыт инновационного развития агропромышленного комплекса [Электронный ресурс] // Управление экономическими системами. 2014. № 4 URL.:[www.uecs.ru](http://www.uecs.ru) (дата обращения: 4.12.2014);
15. Д.С.Караваев. Государственное регулирование инвестиционных процессов в условиях рыночных отношений. Автореф. дисс. канд. экон. наук. – Москва, 2008, -С.26.
16. Ахмедов Т.М., Монография. Социально-демографические риски устойчивости и стабильности в экономике. Тошкент “Print Media” 2016, 118 с
17. Олимжонов О.О. Вопросы повышения конкурентоспособности сельских районов. Агрэкономика, 2017, №1. — С. 7-12
18. Кадыров А. М. и др. Региональная экономика. — Т.: LESSON PRESS, 2018. -239 с.
19. Зокиров С.С. Инструменты государственного регулирования комплексного развития регионов Узбекистана. Материалы VI Форума экономистов. Т. II. Ташкент: IFMR, 2015. –С. 94–101.
20. Каримов Н.Г. Иқтисодий интеграциялашув шароитида инвестицияларни молиялаштиришнинг бозор механизмларини жорий этиш муаммолари: 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2007;
21. Mamatkulov A.V. The role of free economic zones in attracting foreign direct investment through small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. “Economic development and liberalization issues of implementation the five priority areas of Uzbekistan’s development strategy”. -Tashkent, 2018.;
22. Мустафакулов Ш.И. Худудларнинг инвестицион жозибадорлиги: аниқлашнинг услубий жиҳатлари ва таъсир кўрсатадиган омилларнинг таснифий таҳлил // Молия ва банк иши (илмий электрон журнал) -Тошкент, 2016. –№5. Низамов А.Б. Совершенствование системы управления региональной экономикой в условиях устойчивого экономического роста. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Ташкент, 2018 г. – 45 с.;

23. Хашимова Н.А. Инвестиционный потенциал. Монография. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2014. – 320с.

24. Каримов М.М., Федяшева Г.Ч.-Б. Инвестиционный климат Узбекистана: международные рейтинги, региональный и отраслевой аспект // ж. «Бозор, пул ва кредит», №5-2018. — С. 36-45.

25. Freedman, Charles, Michael Kumhof, Douglas Laxton, Dirk Muir and Susanna Mursula. 2010. “Global Effect of Fiscal Stimulus During the Crisis.” *Journal of Monetary Economics* 57: 506–526.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

## 2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**